

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

PARMONOV SARVAR TOSHPO‘LATOVICH

**YEYILISHGA BARDOSHLI VOLFRAM KARBID-KOBALT ASOSLI
QATTIQ QOTISHMALARNI OLISHNING YANGI TEXNOLOGIK
TAMOYILLARINI ISHLAB CHIQISH**

**05.02.01–Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi**

**TEXNIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2024

Doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации

Content of the abstract of doctoral dissertation

Parmonov Sarvar Toshpo‘latovich

Yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni olishning yangi texnologik tamoyillarini ishlab chiqish..... 3

Пармонов Сарвар Тошпулатович

Разработка новых технологических принципов получения износостойких твердых сплавов на основе карбида вольфрама-кобальтовых составляющих..... 29

Parmonov Sarvar Toshpulatovich

Development of new technological principles for producing wear-resistant hard alloys based on tungsten carbide-cobalt components..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**NAVOIY DAVLAT KONCHILIK VA TEXNOLOGIYALAR
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.17/04.06.2021.T.06.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

PARMONOV SARVAR TOSHPO‘LATOVICH

**YEYILISHGA BARDOSHLI VOLFRAM KARBID-KOBALT ASOSLI
QATTIQ QOTISHMALARNI OLIHNING YANGI TEXNOLOGIK
TAMOYILLARINI ISHLAB CHIQISH**

**05.02.01–Mashinasozlikda materialshunoslik. Quymachilik. Metallarga termik va bosim
ostida ishlov berish. Qora, rangli va noyob metallar metallurgiyasi**

**TEXNIKA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Navoiy – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.3.DSc/T666 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.nsumt.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Turaxodjaev Nodir Djaxongirovich
texnika fanlari doktori, professor

Pirmatov Eshmurat Azimovich
texnika fanlari doktori, professor

Matkarimov Soxibjon Turdalievich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Milliy texnologik tadqiqotlar universiteti «MISiS» ning
Olmaliq shahridagi filiali**

Dissertatsiya himoyasi Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi DSc 17/04.06.2021.T.06.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «28» 09 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy. Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti majlislar zali. Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66; e-mail: info@nsumt.uz. www.nsumt.uz)

Dissertatsiya bilan Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (162 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 210100, Navoiy shahri, G‘alaba shoh ko‘chasi, 76v-uy, Tel.: (79) 223-23-32; faks: (79) 223-49-66.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil « 16 » 09 kuni tarqatildi.
(2024 yil «16» 09 dagi 16 raqamli reestr bayonnomasi)



K. Sanakulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

O.U. Fuzaylov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, t.f.f.d. (PhD)

A.U. Samadov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda tog‘-kon sanoatida ma‘danlarni maydalash va burg‘ilash jarayonlarida qo‘llanilayotgan qattiq qotishmalarning bog‘lovchi elementi tarkibiga modifikatorlar kiritilib, ularning mustahkamligini oshirish hamda qumoqlashning texnologik sxemalarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, qattiq qotishma chiqindilarini va chiqindilardan olingan shlamlarni kompleks qayta ishlash metallurgiya sanoati uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu turli texnik, texnologik, tashkiliy va boshqa muammolarni hal etishni taqozo etadi. Volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni ikki bosqichli qumoqlash hamda yeyilishga bardoshlilik bo‘yicha ko‘p yillik tajribalar natijasida bog‘lovchining abraziv zarrachalar va yuqori zarba kuchlari ta‘sirida yeyilishi aniqlandi. So‘nggi yillarda qattiq qotishmalarning xossalari yaxshilash bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar bajarilishiga qaramay, bog‘lovchini modifikatorlar bilan mustahkamlash eng istiqbolli yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Yaqin kelajakda metallurgiya, konchilik, aviakosmos sanoatlarida hamda yuqori yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalar ishlab chiqarishda alohida qiziqish uyg‘otadigan nanokukunlarni qo‘llash sohasining kengayishiga e‘tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoda tog‘-kon sanoatida qo‘llanilayotgan jihozlarni takomillashtirish va ularning ishlash muddatini oshirish imkonini beruvchi nanokukunli modifikatorlar turlarini ishlab chiqish; qattiq qotishmalarni qumoqlash jarayonida modifikatorni bog‘lovchi bilan kimyoviy birikma hosil qilishini oldini olish; modifikatorni qattiq qotishmalar mikrostrukturasiga ta‘sirini aniqlash, qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlash darajasini oshirishga qaratilgan samarador texnologiyalarni yaratish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada qattiq qotishmalarning chiqindilaridan volfram kukunini ajratib olishning eng samarali texnologik yechimlarini aniqlash, olingan kukunlarni tozalashning muqobil texnologik parametrlarini asoslash, toza volfram karbid kukunlaridan nanokukunlar sintezlash texnologik sharoitlarini aniqlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ va “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ ishlab chiqarish korxonalarini samaradorligini oshirish bo‘yicha ilg‘or ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni joriy qilib, qator ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorida¹ “Respublikada tog‘-kon korxonalarini mineral-hom ashyo bazasidan foydalanish samaradorligini oshirish” kabi muhim vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalarning yangi tarkibini ishlab chiqish va uni olish texnologiyasini yaratish asosiy vazifalardan bo‘lib, bu yo‘nalishga qaratilgan tadqiqotlar katta ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi» to‘g‘risidagi Farmoni, 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-son “Kon-metallurgiya sohasi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 yanvardagi PQ-4124-son «Kon-metallurgiya tarmog‘i korxonalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori

korxonalari faoliyatini kelgusida takomillashtirish choralari” haqidagi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi. Mazkur tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi¹. Yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalarni olish, ularning chiqindilaridan toza metall kukunlari olish, nanokukunlar sintezlash texnologiyasini yaratishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta’lim muassasalari, jumladan: Oak Ridge Institute for Science and Education (AQSh), Wuhan University of Technology (Xitoy), Luoyang Ship Material Research Institute (Xitoy), Royal Institute of Technology (Shvetsiya), Stockholm University (Shvetsiya), University of Petroleum and Energy Studies (Hindiston), Institute of Science and Innovation in Mechanical Engineering (Portugaliya), Uzoq Sharq Federal universiteti (Rossiya), Milliy tadqiqot texnologiya universiteti “MISiS” (Rossiya), Belarus milliy texnika universiteti (Belarusiya), Qozoq milliy tadqiqot texnika universiteti (Qozog‘iston), Olmaliq kon-metallurgiya kombinati (OKMK) “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha” IICHB va Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filialida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalarni olish va ularning chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish hamda ularni takomillashtirishga doir jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi natijalar olingan: uglerod miqdorining volfram karbid asosli qattiq qotishmalarni qumoqlash texnologiyasi bilan bog‘liqligi aniqlangan (National University of Singapore); WC-Co sistemasida uchqunli plazma usulida qumoqlash texnologiyasi (Baykov Institute of Metallurgy and Materials Science) va volfram karbid nanokukunlarini olish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Indian Institute of Technology); sintezlashda hosil bo‘lgan nanozarrachalarning shakllanishi va morfologiyasi o‘rganilgan (Guizhou university); Nitridlanish-karbonizatsiya usuli bilan volfram karbid nanokukunlarini olish texnologiyasi takomillashtirilgan (The State Key Laboratory of Refractories and Metallurgy); qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan (Dalian Polytechnic University); volfram nanozarrachalarini olishning yangi texnologiyalari yaratilgan (Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha IICHB).

Dunyoda, qattiq qotishma chiqindilaridan nanokukunlar olish hamda ularni nanokukunlar bilan modifikatsiyalash bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: qattiq qotishma tarkibidagi kobaltni eritmaga o‘tkazish orqali volfram karbidni shlam ko‘rinishida ajratib olish usullarini

² Dissertatsiyaning mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi www.atlasrockbit.com, <http://www.varelintl.com>, www.dissercat.com, <http://vbm.ru>, <https://www.amazon.com>, <http://www.mirknigi.ru> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

ishlab chiqish; shlamni tozalash jarayonini yanada takomillashtirish; metall karbid kukunlaridan nano o'lchamdagi kukunlar olishning yangi texnologiyalarini asoslash va takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalarning yangi kimyoviy tarkibini yaratishda modifikatorlar qo'llash, nanokukunlar sintez qilish, qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlash orqali metallarni ajratib olishni o'rganish rivojiga xorijiy va mahalliy olimlar: M.S.Moreno, L.L.Kabezas, T.S.Biurrun, G.C.Kreymer, J.A.Gurland, J.F.Do, J.Pittari, R.P.Herber, I.N.Sevostyanova, D.S.Terentev, D.A.Zaxarov, R.U.Kalamazov, S.D.Nurmurodov, A.X.Rasulov, Sh.M.Shakirov va boshqa olimlar salmoqli hissalarini qo'shganlar.

Jahon amaliyotida qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlashda natriy nitrat bilan oksidlab eritish texnologiyasi o'zini yaxshi isbotladi. Ushbu texnologiya qattiq qotishmalarni qayta ishlash jarayoni jadal germetik rejimda olib boriladigan va olingan qumolarni keyingi qayta ishlash jarayoni kremniydan tozalash, yuvish, neytrallashtirish hamda cho'ktirish bosqichlarini o'z ichiga oladigan, hozirgi vaqtda iqtisodiy jihatdan samaradorligi past bo'lgan, shuningdek, atrof-muhitning ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan kobalt tarkibli shlam chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqarishga jalb qilish imkonini beradi.

Shuning uchun volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlashning mavjud texnologiyalarini takomillashtirish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy muammo bo'lib, qattiq qotishma chiqindilarini elektroliz usulida qayta ishlash usullarini ishlab chiqish samaradorligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali ilmiy-tadqiqot rejasining AK-008/22 "Ruda maydalovchi drobilka detallarini tayyorlash uchun qattiq qotishmaning yeyilishga bardosh tarkibini ishlab chiqish va uni tadqiq qilish" (2022 y.) va 18KT "Yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni olishning yangi texnologik tamoyillarini ishlab chiqish" (2024 y.) mavzularidagi loyihalar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni olishning yangi texnologik tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni olishning yangi texnologik tamoyillarini ishlab chiqish;

volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlash va qayta ishlash natijasida olingan shlamdan toza volfram karbid kukunlarini olishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish, takomillashtirish va joriy etish;

qattiq qotishma chiqindilaridan olingan toza volfram karbid kukunlaridan volfram karbid nanokukunlarini olishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish;

maydalash va burg'ilash jarayonlari uchun modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmaning yangi kimyoviy tarkibini ilmiy asoslash;

modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni nisbatan past haroratlarda qumoqlash rejimini ishlab chiqish;

yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmadan tayyorlangan maydalash va burg'ilash detallarini qumoqlash texnologiyasini laboratoriya va tajriba-sanoat sinovlarini o'tkazish;

VK6 markali detallariga nisbatan ma'danlarni maydalash va burg'ilashdagi yeyilishga bardoshlilik yuqori bo'lgan yangi tarkibli yuqori egilishga mustahkamlik chegarasiga, qattiqlikka va yeyilishga bardoshlilikka ega detallar ishlab chiqish;

Tadqiqotning obyektini sifatida ma'danlarni maydalash va burg'ilash uchun qo'llaniladigan volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmadan tayyorlangan detallari, elektroliz jarayoni natijasida olingan volfram karbid shlamlari, volfram karbid nanokukunlari, qattiq qotishmalardan qumoqlangan namunalari olingan.

Tadqiqotning predmetini muqobil miqdoriy qiymatlarda aralashtirilgan volfram karbid, kobalt, ultradispers titan-karbid va volfram karbid nanokukunlaridan foydalanib, qumoqlash texnologiyasi tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda qattiq qotishmalarni qumoqlash, ularning chiqindilarini qayta ishlash bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalaridagi ilmiy-texnik ma'lumotlar va tajribalarni tahlil qilish; analitik, atom-adsorbsion, rentgenofaza tahlili, elektron mikroskopiya, elektroliz va Rokvell usullardan foydalangan holda nazariy tadqiqotlar; laboratoriya tajribalari, tajriba-sanoat sinovlari va ishlab chiqilgan usullarni ishlab chiqarish sharoitida sinovdan o'tkazish; fizik-mexanik usullar, hamda zarrachalarning o'lchami, shakli va zarracha sirtining morfologik tahlili, tajriba ma'lumotlarini qayta ishlashning matematik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilaridan bog'lovchi kobaltning elektroliz jarayonida eritmaga ionlar ko'rinishida o'tishi natijasida hosil bo'lgan shlamni yuqori haroratda argon muhitida tozalash asosida toza volfram karbid kukunlarini olishning yangi texnologik tamoyillari ilmiy asoslangan;

VK6 markali abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini qayta ishlash texnologiyasi kobalt bog'lovchining elektroliz jarayonida eritmaga o'tishi asosida ishlab chiqilgan;

qattiq qotishma chiqindilaridan olingan toza volfram karbid kukunlarini ular bilan ta'sirlashmaydigan tuzlar bilan sintezlash asosida volfram-karbid nanokukunlarini olishning yangi texnologiyasi ishlab chiqilgan;

maydalash va burg'ilash jarayonlari uchun volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmaning yangi kimyoviy tarkibi kobalt bog'lovchini volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalash asosida ishlab chiqilgan;

yeyilishga bardoshli VK6VN7 markali qattiq qotishmadan tayyorlangan maydalash va burg'ilash detallarini qumoqlash texnologiyasi vakuum va inert muhitlarda kobalt bog'lovchida modifikatorning eritmasidan uning yeyilishga bardoshlilikini oshirishi asosida ishlab chiqilgan;

volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni nisbatan past haroratlarda qumoqlash

rejimi presslash bosimi, qumoqlash harorati, qumoqlash davomiyligi, uglerod va modifikator miqdoriga bog‘liqlik grafigi asosida aniqlangan;

VK6 markali detallariga nisbatan ma‘danlarni maydalash va burg‘ilashdagi yeyilishga bardoshlilik 10-12% yuqori bo‘lgan yangi tarkibli detallar volfram karbid nonokukun zarrachalarining bog‘lovchi kobaltda erimasdan, uning yuqori egilishga mustahkamlik chegarasi, qattiqligi va yeyilishga bardoshlilikini ta‘minlagan qumoqlash haroratining optimal qiymatlari asosida ishlab chiqilgan.

yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni olishning yangi texnologik tamoyillari qattiq qotishmalarni olish, qayta ishlash, mustahkamlik nazariyasini rivojlantirish va ularning yakuniy mustahkamligini uglerod va modifikatorlar miqdoriga bog‘liqligi asosida yaratilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

VK6 markali abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilari tarkibidagi kobaltni 99,9% gacha eritmaga o‘tkazish hamda shlam tarkibidagi temirning miqdori 5-6% dan 0,5% gacha kamaytirish imkonini beruvchi elektroliz usulida qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

volfram karbid asosli qattiq qotishma chiqindilaridan tozalik darajasi 99,9% bo‘lgan toza volfram karbid kukunlarini olishning texnologiyasi ishlab chiqilgan;

qo‘llanilganda qattiq qotishma detallarining g‘ovakligi 8-10%ga kam bo‘lgan volfram karbid asosli qattiq qotishma chiqindilaridan volfram-karbid nanokukunlarini olishning texnologiyasi ishlab chiqilgan;

ishlash muddati 10-12%ga yuqori bo‘lgan volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma tarkibi yaratilgan;

yeyilishga bardoshlilik 10-12%ga yuqori bo‘lgan volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma ishlab chiqarish texnologiyasi ishlab chiqilgan;

energiya sarfi 11-13%ga past bo‘lgan volfram-karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni qumoqlashning muqobil rejimi yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi quyidagilar bilan tasdiqlanadi: masalalarni qo‘yishning to‘g‘riligi, laboratoriya va tajriba-sanoat sinovlarining yetarli va statistik jihatdan asoslangan hajmi; nanokukunlar bilan modifikatsiyalangan qattiq qotishma qumoqlash texnologiyasini ishlab chiqish bo‘yicha ishlarning asosiy g‘oyasini miqdoriy jihatdan tasdiqlash; olingan natijalarni laboratoriya sinovlari va shlam hamda elektrolitning fizik-kimyoviy asoslari usullari bilan mos kelishi; ishlab chiqilgan qayta ishlash texnologiyasini tajriba sharoitida sinovdan o‘tkazishda olingan ijobiy natijalar; taklif qilingan tavsiyalar, usullarning sanoat aprotatsiyasi va erishilgan texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati eng maqbul elektrolit ishtirokida VK6 barmoq chiqindilarini elektroliz usulida qayta ishlash natijasida olinagan shlamning tozaligi hamda miqdori elektrolit turi va haroratiga, berilayotgan tok kuchi va

kuchlanishga, katod va anodlar orasidagi masofasiga hamda yuzalariga, jarayon davomiyligiga bog‘liq holda shakllanishining tartibi aniqlanganligi orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qattiq qotishma chiqindilaridan elektroliz usulida toza volfram karbid kukunlarini olishning texnologiyasi, volfram karbid kukunlarini sintezlab volfram-karbid nanokukunlarini ishlab chiqarishning texnologiyasi, volfram kukunlarini karbidizatsiyalash texnologiyasi, volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma tarkibi, ularni ishlab chiqarish texnologiyasi va qumoqlash rejimlarini ishlab chiqarishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlash tamoillari, ularni yangi tarkibini ishlab chiqish va davriy zarba qarshiligi hamda abraziv yeyilishga bardoshlilik bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

VK6 markali abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini kislotalar ishtirokida qayta ishlash texnologiyasi “Navoiy KMK” AJ “Navoiy mashinasozlik zavodi” ICHBda amaliyotga joriy etilgan (“Navoiy KMK” AJning 2024 yil 6 avgustdagi №23/01-01-07/436-sonli ma’lumotnomasi). Natijada barmoq chiqindilari tarkibidagi kobalt 99,9% gacha eritmaga o‘tkazilgan hamda shlam tarkibidagi temirning miqdori 5-6% dan 0,5% gacha kamaytirish imkonini bergan;

Volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilaridan toza volfram karbid kukunlarini olishning yangi texnologiyasi “Olmaliq KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha” ICHBda amaliyotga joriy etilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 7 martdagi №SL-239-sonli ma’lumotnomasi). Natijada volfram karbid kukunlarining tozalik darajasini 99,9% gacha oshirish imkonini bergan;

Volfram karbid asosli qattiq qotishma chiqindilaridan volfram karbid nanokukunlarini ishlab chiqarishning yangi texnologiyasi “Olmaliq KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha” ICHBda amaliyotga joriy etilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 7 martdagi №SL-239-sonli ma’lumotnomasi). Natijada qattiq qotishma detallarining g‘ovakligini 8-10% ga kamaytirish imkonini bergan;

Volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalari tarkib “Olmaliq KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha” ICHBda amaliyotga joriy etilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 7 martdagi №SL-239-sonli ma’lumotnomasi). Natijada qattiq qotishma detallarining ishlash muddatini 10-12 % ga oshirish imkonini bergan;

Volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma ishlab chiqarish texnologiyasi “Olmaliq KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha” ICHBda amaliyotga joriy etilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 7 martdagi №SL-239-sonli ma’lumotnomasi). Natijada volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma detallarning yeyilishga bardoshlilikini 10-12% ga oshirish imkonini bergan;

Volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni nisbatan past haroratlarda qumoqlash

rejimi “Olmaliq KMK” AJ “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha” ICHBda amaliyotga joriy etilgan (“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 7 martdagi №SL-239-sonli ma’lumotnomasi). Natijada volfram karbid nanokukunlari bilan modifikatsiyalangan yeyilishga bardoshli volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarni qumoqlashdagi energiya sarfini 11-13% ga kamaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlari va simpoziumlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan 1 ta foydali modelga patent, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola nashr etilgan, jumladan 11 ta respublika va 4 ta xorijiy jurnallarda.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 197 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekt va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va asosiy natijalari bayon qilingan, tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish va aprotatsiyasi, shuningdek, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalar va ularni qayta ishlashning istiqbollari**” deb nomlangan birinchi bobida bugungi kunda jahonda va MDH davlatlarida sanoat miqyosida ma‘danlarni maydalash va burg‘ilash jarayonida keng qo‘llanib kelinayotgan qattiq qotishmalarning qo‘llanilish sohalari, bog‘lovchi materiallarning fizik xossalari, volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilarini qayta ishlashning zamonaviy usullarining tahlillari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot obyekti, yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalar fizik-mexanik xossasini tadqiqot qilish metodikalari hamda ularning asosini tashkil qiluvchi kukunlarning xossalarini tadqiq qilish**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyekti, volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarning fizik-mexanik xossalarini aniqlashning zamonaviy metodika va usullari, volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarini tayyorlash uchun xomashyo materiallarini tanlash, xomashyo materiallarining xossalari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalardan tayyorlangan namunalarning sifatiga uglerod miqdorining ta‘sirini ilmiy-amaliy tadqiq qilish**” deb nomlangan uchinchi bobida volfram karbid-kobalt asosli qattiq

qotishmalarning xomashyolarini olishning texnologiyalarini tadqiq qilish, volfram karbid kukunlaridagi uglerod miqdori va uning modifikatsiyalangan volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarning mustahkamligiga ta'sirini tadqiq qilish, volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarning davriy zarbaga va abraziv yeyilishga bardoshlilikini uglerod miqdoriga bog'liqligini aniqlash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Qattiq qotishmalar ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan volfram kukunlari o'rganilganda ular tarkibida molibden metalining miqdori yuqori ekanligi aniqlandi. Molibdendan qutilish maqsadida karbidizatsiya jarayonining haroratini 1800°C gacha oshirildi. Natijada molibdenning miqdori o'rtacha 0,015 foizgacha kamaydi. Bajarilgan tadqiqotlar davomida namunalar tarkibidagi umumiy uglerod miqdori 6,06-6,14% oralig'ida bo'lishi hisobga olindi va ular Δ oralig'i bilan farqlandi. Olingan volfram karbid kukunlarining kimyoviy tarkibi 1 – jadvalda keltirilgan.

1 – jadval.

Karbidizatsiya jarayonidan so'ng olingan WC ning kimyoviy tarkibi

	Nomlanishi	Aniqlanayotgan elementlar, %					
		W	C _{um.}	C _{erkin}	Fe	Mo	Boshqa
1	WC-kukun	93,860	6,000	0,024	0,100	0,015	0,001
2	WC-kukun	93,805	6,000	0,020	0,170	0,017	0,003
3	WC-kukun	93,577	6,200	0,015	0,170	0,014	0,002
4	WC-kukun	93,646	6,200	0,020	0,120	0,013	0,001
5	WC-kukun	93,577	6,200	0,017	0,190	0,014	0,002
6	WC-kukun	93,189	6,300	0,043	0,450	0,015	0,003

Ma'lumki, strukturada erkin uglerod va η – fazaning oz miqdorda bo'lsada mavjudligi volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalarning mustahkamligini pasayishiga olib keladi. VK6, VK6UDT5, VK6VN7 markali qattiq qotishmalarining yakuniy egilishdagi mustahkamlik chegarasining undagi uglerod miqdoriga bog'liqligi 1 – rasmda keltirilgan.



1-VK6 (standart); 2-VK6UDT5 (ultradispers zarrachali); 3-VK6VN7 (nano zarrachali);
1 – rasm. VK6VN7, VK6UDT5, VK6 markali qattiq qotishmaning egilishdagi mustahkamlik chegarasining erkin uglerod (C_{er}) miqdoriga va η – fazaning % tarkibiga bog'liqligi.

Volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalar xossalari uglerod miqdoriga bog'liqligini aniqlash maqsadida qumolangan VK6NV7 markali qattiq qotishma namunalari tayyorlandi. Qattiq qotishma namunalariidagi umumiy uglerod miqdori

bo'yicha turli xil natijalarni olish uchun turli qumoqlash rejimlaridan tanlandi. Tahlil natijalari 2 – jadvalda keltirilgan.

2 – jadval

Turli rejimlarda qumoqlangan VK6NV7 markali qattiq qotishma namunalarning fizik-mexanik xossalari

№	C _{um} , %	Zichlik, g/sm ³	Qattiqlik, HRA	G'ovaklik, ball	Mikrostruktura	Harorat, °C
1	5,35	14,83	91,0	A ₁ B ₀ C ₀	Bir xil	1340
2	5,35	14,82	91,1			1350
3	5,34	14,82	91,2			1360
4	5,32	14,83	91,1			1370
5	5,30	14,82	91,1			1380
6	5,26	14,83	90,8		η – faza	1390
7	5,25	14,81	90,7			1390

Dissertatsiyaning “**Volfram karbid asosli qattiq qotishmalar chiqindilaridan nanokukunlari olishning texnologiyasini ishlab chiqish**” deb nomlangan to'rtinchi bobida volfram karbid asosli qattiq qotishma chiqindilaridan elektroliz usuli bilan volfram karbid kukunlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish, elektroliz usulida olingan volfram karbid kukunlarini argon muhitida tozalash texnologiyasini ishlab chiqish, volfram karbid nanokukunlarini o'z-o'zidan tarqaluvchi yuqori haroratli sintez usuli bilan olish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilarini elektrolit sifatida nitrat kislota, sulfat kislotalar yoki ularning eritmalaridan foydalanib, kobaltning eritmaga o'tishi va volframning volfram kislotasi yoki volfram karbid shaklida shlamga to'planishi bilan qayta ishlash mumkin.

O'zgaruvchan tok kuchi ta'sirida ma'lum sharoitlarda volfram karbid-kobalt asosli abraziv yeyilib, ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini nitrat kislota va sulfat kislota yordamida qayta ishlashda elektroliz jarayoni sodir bo'lmadi.

O'zgarmas tok kuchi ta'sirida volfram karbid-kobalt asosli abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini nitrat kislota yordamida qayta ishlashda elektroliz jarayonining rejimlari va elektrolitlar tarkibining shlamning chiqishiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar 3 – jadvalda keltirilgan.

3 – jadval

Abraziv yeyilib, ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini o'zgarmas tok kuchi ta'sirida nitrat kislota ishtirokida elektroliz qilish (t=12 soat, T=20°C, l=10 mm, V_{um}=600 ml)

№	Eritma, %.	Tuz, g.	Olingan mahsulot massasi, g.	Elektrolit hajmi, ml	Kuchlanish va tok kuchi	
	HNO ₃	NH ₄ NO ₃	Shlam		Kuchlanish, V	Tok kuchi, A
4	9,50	2	41,0572	400	4	2,8
10	14,25	2	56,0730	410	4	3,06/2,8/2,9
6	19,00	2	52,9266	500	4	3,10
12	23,75	2	47,2048	392	4	3,06/2,6
8	28,50	2	50,5214	450	4	2,82

Abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilaridan shlam holatida olingan namunalar filtrlandi, quritildi va kukun holatiga keltirildi. O'zgarmas tok kuchi ta'sirida nitrat kislota ishtirokida elektroliz qilish natijasida olingan volfram karbid

kukunlarining sirt morfologiyasi va kimyoviy tarkibi SEM-EVO MA 10 markali skanerli elektron mikroskop yordamida o'rganildi.


Nitrat kislota ishtirokida o'zgaras tok kuchi ta'sirida shlam holatida olingan namunalarni filtrlandi va quritildi. Olingan volfram karbid kukunlarining kimyoviy tarkibini o'rganish maqsadida namuna Energiya dispersli rentgen floresansi (EDXRF) qurilmasi yordamida tahlil qilindi (4 – jadval).

4 – jadval

Barmoq chiqindilarini nitrat kislota ishtirokida elektroliz qilish natijasida olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi (№6 sonli namuna)

Aniqlanayotgan elementlar, %									
M	W	Al	Fe	Ni	Cu	Zn	Mo	Ag	Sn
%	86,0000	0,6000	0,0833	0,1410	0,0165	0,0581	0,2040	0,0088	0,0417
M	Co	Te	Hf	Sb	Hg	Si	P	S	Cl
%	0,0945	0,0184	0,0194	0,0041	0,1520	11,1000	0,9340	0,2640	0,0144

Spectrum



2 - rasm. Barmoq chiqindilarini nitrat kislota ishtirokida elektroliz qilish natijasida olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi (№6 sonli namuna)

5 – jadval

Abraziv yeyilib, ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini o'zgaras tok kuchi ta'sirida nitrat kislota ishtirokida elektroliz qilish (t=12 soat, T=20°C, l=10 mm, V_{um}=600 ml)

№	Eritma, %.		Olingan mahsulot massasi, g.	Elektrolit hajmi, ml	Kuchlanish va tok kuchi	
	HNO ₃	NH ₄ NO ₃			Shlam	Kuchlanish, V
4 ¹	9,5	2	41,0572	400	4	2,8/2,97/2,7
15	9,5	4	41,1580	450	4	2,94/2,24/2,0
17	9,5	6	42,7000	450	4	3,04/2,64/2,3
10 ¹	9,5	8	56,0730	410	4	3,06/2,8/2,9
6 ¹	9,5	10	56,9300	500	4	3,10/3,15
12 ¹	9,5	12	57,4800	392	4	3,06/2,6
2 ¹	9,5	14	42,8172	500	4	2,6

5 – jadvalda keltirilgan natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qaytaruvchi tuz miqdorining 2 g dan 12 g gacha oshishi bilan ajralgan shlamning miqdori ortib boradi, uning miqdori 12 g dan oshishi bilan ajralgan shlam miqdori kamaydi. Buni eritmada ionlar sonining oshishi bilan ularning to'qnashuvlar sonini ortishi sababli solishtirma elektr o'tkazuvchanligining kamayishi bilan izohlanadi.

O'zgarma tok kuchi ta'sirida volfram karbid-kobalt asosli abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini sulfat kislota yordamida qayta ishlashda elektroliz jarayonining rejimlari va elektrolitlar tarkibini shlamning chiqishiga ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlar 6 – jadvalda keltirilgan.

6 – jadval

Abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini o'zgarma tok kuchi ta'sirida sulfat kislota ishtirokida elektroliz qilish (t=12 soat, T=20°C, l=10 mm, V_{um}=600 ml)

№	Eritma, %.	Tuz, g.	Olingan mahsulot massasi, g.	Elektrolit hajmi, ml	Kuchlanish va tok kuchi	
	H ₂ SO ₄	(NH ₄) ₂ SO ₄	Shlam		Kuchlanish, V	Tok kuchi, A
7	8,167	2	32,8459	550	4	2,46
3	16,330	2	43,0405	425	4	2,9
9	24,500	2	35,1463	500	4	2,7
5	32,670	2	5,1281	600	4	2,3
11	40,830	2	0,2500	565	4	0,8-0,11-0,77
13	49,000	2	–	600	4	0,11/0,07

7 – jadval

Abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini o'zgarma tok kuchi ta'sirida sulfat kislota ishtirokida elektroliz qilish (t=12 soat, T=20°C, l=10 mm, V_{um}=600 ml)

№	Eritma, %	Tuz, g.	Olingan mahsulot massasi, g.	Elektrolit hajmi, ml	Kuchlanish va tok kuchi	
	H ₂ SO ₄	(NH ₄) ₂ SO ₄	Shlam		Kuchlanish, V	Tok kuchi, A
3	16,33	2	43,0405	425	4	2,9
14	16,33	4	40,4875	479	4	2,78/2,38/2,7
16	16,33	6	40,5300	470	4	2,80/2,74/2,6
18	16,33	8	63,5400	480	4	2,84
19	16,33	10	63,6360	510	4	3,4
21	16,33	12	28,4200	402	4	2,7
22	16,33	14	30,6500	500	4	3,9


7 – jadvalda keltirilgan natijalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, qaytaruvchi tuz miqdorining 2 g dan 10 g gacha oshishi bilan ajralgan shlamning miqdori ortib boradi, uning miqdori 10 g dan oshishi bilan ajralgan shlam miqdori kamaydi. Buni eritmada ionlar sonining oshishi bilan ularning to'qnashuvlar sonini ortishi sababli solishtirma elektr o'tkazuvchanligining kamayishi bilan izohlanadi.

Sulfat kislota ishtirokida o'zgarma tok kuchi ta'sirida shlam holatida olingan namunalar filtrlandi va quritildi. Olingan volfram karbid kukunlarining kimyoviy tarkibini o'rganish maqsadida №21 sonli namuna Energiyadispersli rentgen floresansi (Energy Dispersive X-ray Fluorescence (EDXRF) qurilmasi yordamida tahlil qilindi.

8 – jadval

Barmoq chiqindilarini sulfat kislota ishtirokida elektroliz qilish natijasida olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi (№21 sonli namuna)

Aniqlanayotgan elementlar, %									
M	W	Al	Fe	Ni	Cu	Zn	Mo	Ag	Sn
%	81,0000	0,5340	0,0701	0,1130	0,0337	0,0450	0,5050	0,0095	0,0453
M	Co	Te	Ti	Sb	Hg	Si	P	S	–
%	0,4250	0,0216	0,1860	0,0066	0,1590	8,2500	0,723	7,8300	–



3 - rasm. Barmoq chiqindilarini nitrat kislota ishtirokida elektroliz qilish natijasida olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi (№21 sonli namuna)

№21 sonli namuna tarkibida qumoqlash jarayoni uchun zararli qo‘shimcha metallar (Al, Fe, Ni, Cu, Zn, Mo, Ag, Sn, Te, Ti, Sb, Hg) mavjud, ammo volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalar bog‘lovchisi bo‘lgan Co 98-99% eritmaga o‘tgan.

O‘zgarmas tok kuchi ta’sirida volfram karbid-kobalt asosli abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini sulfat kislota yordamida qayta ishlashda elektroliz jarayoniga va shlamning ajralish miqdoriga katod va anod orasidagi masofaning bog‘liqligini aniqlash maqsadida amalga oshirilgan tadqiqotlar 9 – jadvalda keltirilgan.

9 – jadval

Abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini o‘zgarmas tok kuchi ta’sirida sulfat kislota ishtirokida elektroliz qilish ($t=12$ soat, $m_{\text{tuz}}=12\text{g}$, $T=20^\circ\text{C}$, $V_{\text{um}}=600$ ml)

№	Eritma, %	Katod va anod orasidagi masofa, mm	Olingan mahsulot massasi, g	Elektrolit hajmi, ml	Kuchlanish va tok kuchi	
	H ₂ SO ₄		Shlam		Kuchlanish, V	Tok kuchi, A
3 ¹	16,33	10	43,0405	450	4	3,9
22 ¹	16,33	20	30,6500	450	4	3,9
23	16,33	30	25,9800	475	4	2,5/2,1
24	16,33	40	27,9500	500	4	3,78/3,74
25	16,33	50	20,9800	550	4	2,45/1,27


12 g. (NH₄)₂SO₄ tuzi qo‘shib elektroliz qilingan namunalardan olingan shlam filtrlandi va quritildi. Olingan volfram karbid kukunlarining kimyoviy tarkibi tahlil qilindi (10 - jadval).

10 – jadval

Barmoq chiqindilarini sulfat kislota ishtirokida elektroliz qilish natijasida olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi (№25 sonli namuna)

Aniqlanayotgan elementlar, %									
M	W	Al	Fe	Ni	Cu	Zn	Mo	Ag	Sn
%	80,9000	0,5620	0,0641	0,1230	0,0173	0,0433	0,414	0,0100	0,0413
M	Co	Te	Hf	Ti	Sb	Hg	Si	P	S
%	0,2860	0,0190	0,1920	0,1960	0,0041	0,1560	9,260	0,7780	6,9500

Spectrum



4 - rasm. Barmoq chiqindilarini nitrat kislota ishtirokida elektroliz qilish natijasida olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi (№25 sonli namuna)

№25 sonli namuna tarkibida qumoqlash jarayoni uchun zararli qo‘shimcha metallar (Al, Fe, Ni, Cu, Zn, Mo, Ag, Sn, Te, Hf, Ti, Sb, Hg) mavjud, ammo volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalar bog‘lovchisi bo‘lgan Co 99% eritmaga o‘tgan.

Elektroliz jarayoniga yana bir katta ta‘sir o‘tkazuvchi omil bu katod va anodning yuzalaridir. Katod va anodning elektrolit bilan ta‘sirlashuvchi yuzasi qancha katta bo‘lsa jarayonda hosil bo‘ladigan shlamning miqdori ham shuncha katta bo‘ladi (11 – jadval).

11 – jadval

Katodning eritma bilan ta‘sirlashuvchi yuzasiga ajralib chiqadigan shlam miqdoriga bog‘liqligi (t=12 soat, l=20 mm, T=20°C, V_{um}=600 ml)

№	Eritma, %	Tuz, g.	Olingan mahsulot massasi, g.	Katodning yuzasi, sm ²	Kuchlanish va tok kuchi	
					H ₂ SO ₄	(NH ₄) ₂ SO ₄
3 ²	16,33	10	64,64	100	4	2,9/3,0
22 ²	16,33	10	130,29	200	4	3,0/3,1
23 ¹	16,33	10	329,20	500	4	2,9/3,3
24 ¹	16,33	10	664,41	1000	4	2,9/3,2
25 ¹	16,33	10	1293,82	2000	4	3,1/3,2


11 – jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar asosida volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma chiqindilaridan tayyorlangan katodning elektrolit bilan ta‘sirlashuvchi yuzasi qancha katta bo‘lsa arjaladigan shlamning miqdori shuncha ko‘p bo‘lishini ko‘rsatdi.

Elektroliz jarayoni tugagandan so‘ng shlamlar filtrlandi, yuvildi va 50-80°C haroratlarda vakuum quritish shkafida quritilib kukun holatiga keltirildi. Quritilgan kukunlarning kimyoviy tarkibi aniqlandi. Olingan natijalar kukunlarni qattiq qotishmalar ishlab chiqarish uchun ishlatish darajasida toza emasligini ko‘rsatdi. Uning tarkibida oz miqdorda kislota qoldiqlari, eritmaga o‘tib ulgurmagan kobalt metali, oz miqdorda volfram oksidlari, oz miqdorda volframat kislotasi borligi aniqlandi. Kobaltdan to‘liq qutulish maqsadida kukunlar elektrolit sifatida ishlatilgan eritmada 3 marta 45 minutdan aralashtirib yuvildi va filtrlandi. 3 marta yuvilib so‘ngra filtrlagandan so‘ng kukun tarkibida kobalt metali aniqlanmadi (12 – jadval).

Barmoq chiqindilaridan olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi


Aniqlanayotgan elementlar, %								
<i>M</i>	W	Al	Fe	Ni	Cu	Zn	Mo	Ag
%	87,1000	0,2870	0,1230	0,1500	0,0444	0,0532	0,5340	0,0113
<i>M</i>	Sn	Te	Hf	V	Hg	Si	P	S
%	0,0475	0,0191	0,2190	0,1940	0,1500	6,750	0,2980	3,970

Spectrum

**5 - rasm. Barmoq chiqindilaridan olingan volfram karbid kukunining kimyoviy tarkibi**

VK6 markali abraziv yeyilib ishdan chiqqan barmoq chiqindilarini kislotalar ishtirokida qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqarishga joriy etish natijasida: barmoq chiqindilari tarkibidagi kobalt 99,9% gacha eritmaga o'tkazilgan hamda shlam tarkibidagi temirning miqdori 5-6% dan 0,5% gacha kamaygan. ("Navoiy mashinasozlik zavodi"ning 05.08.2024 dagi dalolatnomasi va "Navoiy KMK" AJ ning 07.03.2024 dagi №23/01-01-07/436-sonli ma'lumotnomasi).

Olingan shlamning tarkibidagi kremniy oksididan qutilish maqsadida ammoniy ftorid (NH₄)F yordamida volfram karbid kukunini qayta ishlash jarayoni quyidagi reaksiyaga muvofiq bajarildi:



Zararli qo'shimcha metallari bo'lgan kukunlardan toza volfram karbid kukunlarini olish jarayoni vakuum elektr pechlarda 1000°C haroratlarda argon muhitda olib boriladi. Argon inert gaz bo'lganligi sababli kukunlarini tarkibiy qismlarining hech biri bilan kimyoviy reaksiyaga kirishmaydi va harorat ta'sirida kukun tarkibidagi zararli qo'shimchalar (kislota qoldiqlari, oksidlangan volfram, volframat kislota) chiqarib yuborildi. Tozalash jarayonidan o'tgan volfram karbid kukunlarining kimyoviy tarkibi 13 – jadvalda keltirilgan.

13-jadval

Tozalash jarayonidan o'tgan volfram karbid kukunlarining kimyoviy tarkibi

Aniqlanayotgan elementlar, %									
<i>M</i>	W	Al	Fe	Ni	Cu	Zn	Mo	Ag	Sn
%	93,6240	0,0187	0,0119	0,0150	0,0312	0,0325	0,0534	0,0113	0,0147
<i>M</i>	Co	Te	Hf	V	Hg	Si	P	S	C
%	–	0,0111	0,0192	0,0194	0,0150	0,0121	0,0002	0,0003	6,1100

Elektroliz, filtrlash va tozalash bosqichlaridan o'tgan volfram karbid kukunlari

tarkibidagi uglerodning miqdori aniqlandi, natijalar 14 – jadvalda keltirilgan.


14 – jadval

Elektroliz, filtrlash va tozalash bosqichlaridan o‘tgan volfram karbid kukunlari tarkibidagi uglerodning miqdori

T/R	№1	№2	№3	№4	№5
Cum.	6,14%	6,08%	6,12%	6,06%	6,07%
Cerk.	0,04%	0,02%	0,04%	0,03%	0,10%


Volfram karbid nanokukunlarini o‘z-o‘zidan tarqaluvchi yuqori haroratli sintez usuli bilan olish texnologiyasini ishlab chiqish maqsadida 4 ta shixta namunalari №1 WC + nitrosellyuloza ($[C_6H_7O_2(OH)_{3-x}(ONO_2)_x]_n$) + KCl + (1-10%); №2 WC + nitrosellyuloza + NaCl + (1-10%); №3 WC + nitrosellyuloza + K_2CO_3 + (1-10%); №4 WC + perxlorvinil smola ($C_6H_8Cl_{14}$) tarkibli shixta namunalari tayyorlab olindi.

Dastlab tayyorlab olingan KCl tarkibli namunalalar, KCl ning foiz miqdorlari turlicha bo‘lganda qarama-qarshi oqimda filtrlash va birgalikdagi oqimda filtrlash rejimlarida WC+nitrosellyuloza+KCl aralashmasi uchun amalga oshirildi.




1) qarama-qarshi oqimda filtrlash rejimida; 2) birgalikdagi oqimda filtrlash rejimida
6 – rasm. Dastlabki shixta namunalari tarkibidagi KCl miqdorining yonish haroratiga bog‘liqligi

WC+nitrosellyuloza+KCl tarkibli shixta namunalari uchun KCl ning miqdori ortishi bilan sintezlash davomida yonish harorati tushdi. Dastlabki shixta namunalariidagi KCl ning miqdori 8% ga yetganda qarama-qarshi oqimda filtrlash jarayoni amalga oshmadi. Qarama-qarshi oqimda filtrlash rejimidagi kabi WC+nitrosellyuloza+KCl tarkibli namunalalar uchun dastlabki shixta namunalariidagi KCl ning miqdori ortishi bilan sintezlash davomida yonish haroratining tushishi, KCl ning foiz miqdori 8% dan ortgan namunalalar birgalikdagi oqimda filtrlash vaqtida yonmaydi va jarayon ketmaydi.



1) qarama-qarshi oqimda filtrlash rejimida; 2) birgalikdagi oqimda filtrlash rejimida
7 – rasm. Dastlabki shixta namunalari tarkibidagi NaCl miqdorining yonish haroratiga bog‘liqligi


NaCl ning aralashmada miqdori 6 % ga yetganda yonish harorati 1250°C gacha tushgan, NaCl 7 % ga yetganda qarama-qarshi oqimda filtrlash rejimida yonmaydi. Birgalikdagi oqimda filtrlash rejimida olib borilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida ma’lum bo‘ldiki, shixta namunalariidagi boshlang‘ich NaCl miqdori 7% ga yetguncha yonish harorati 2100°C dan 1250°C gacha tushdi, NaCl ning miqdori 8% va undan yuqori bo‘lgan aralashmalar yonmadi. Olingan kukunlar o‘rganilganda yakuniy mahsulotlar tarkibida zarracha o‘lchami 100 mikrongacha bo‘lgan polidispers kukunlar ko‘rindi, ammo elektron mikroskopda kattalashtirilganda zarralarning granulometrik o‘lchami 150 - 400 nm gacha bo‘lgan nanozarrachalarning aglomeratlari ekanligi aniqlandi.



1) qarama-qarshi oqimda filtrlash rejimida; 2) birgalikdagi oqimda filtrlash rejimida
8 – rasm. Dastlabki shixta namunalari tarkibidagi K₂CO₃ miqdorining yonish haroratiga bog‘liqligi


8 – rasmdan ko‘rinib turibdiki, shixta namunalariiga oz miqdorda K₂CO₃ qo‘shilishi yonish haroratining qolgan tuzlarga qaraganda sezilarli darajada pasayishiga olib keladi, K₂CO₃ ning boshlang‘ich tarkibi 3% bo‘lganda yonish harorati 1250°C gacha pasaydi. Ammo K₂CO₃ ning miqdori 4 % dan ortiq aralashmalar qarama-qarshi oqimda filtrlash rejimida yonmadi.

Dissertatsiyaning “**Volfram karbid-kobalt asosli yeyilishga bardoshli qattiq qotishma tarkibi va qumoqlash texnologiyasini ishlab chiqish**” deb nomlangan beshinchi bobida volfram karbid-kobalt asosli yeyilishga bardoshli qattiq qotishmalarning qumoqlash texnologiyasini ishlab chiqish, Volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma struktura va fizik-mexanik xossalariga modifikatorlar miqdorining ta’sirini aniqlash, volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishma namunalarini zarbli abraziv yeyilishga va davriy zarba qarshiligiga modifikatorlar miqdorining ta’sirini aniqlash, modifikatsiyalangan volfram karbid-kobalt asosli barmoqlar va dolotalarni ekspluatatsion sharoitda aprobatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.



9 – rasm. Turli modifikatorlar bilan modifikatsiyalangan volfram karbid-kobalt asosli qattiq qotishmalar ishlab chiqarishning texnologik sxemasi


Bajarilgan tajriba natijalar asosida namunalarning yakuniy haroratga bog‘liq ravishda zichlanish darajasi, qoldiq g‘ovakligini va zichligini o‘zgarishi grafik shaklda 10– rasmda keltirilgan.



Yakunlovchi qumoqlash harorati, °C
1-89%WC+6%Co+5%TiC; 1-87%WC+6%Co+7%WC; 3-VK6 (standart)
10 – rasm. Modifikatsiyalangan namunalarning yakuniy haroratga bog'lik ravishda (a) zichlanish darajasini va (b) qoldiq g'ovakligini o'zgarishi grafigi

